

“MEHRIBONLIK UYI”

Jabborova Xushvaqtbonu*Osiyo Xalqaro Universiteti**2-bosqich talabasi*

”Zo’r musavvir bo’lsangiz? Menga o’g’lini maktabga kuzatayotgan ona ko’zini chizib bering”

Dunyoga kelgan go’dakni nega birinchi bo’lib,ona ko’ksiga qo’yishalarini bilasizmi? Go’dak beg’ubor qalbi bilan validasini his qilishi,uning hidini tanishi ,onasining yuragini eshtishi uchun albatta.Ammo ona baxtdan bir umr mosivo bo’lgan go’daklari haqida kech tushunib yetishadi.Unda kech bo’lgan bo’ladi. Vaholanki vaqt oliy hakam,ammo go’daklarning parchalangan bu jajji yuraklarini vaqt ham davolay olmaydi,nima dedingiz?

Deraza ortidan mungli tikilgan bu nigohlar kimnidir kutadi, izlaydi .Ammo bag’ritoshlarning ko’ngli sezmaydi,boshi taq etib devorga urilmaguncha ,anglab yetmaydi...

Deraza ochildi...Uzoq tikildim ..qani kim ochdi ekan bu derazani? Derazadan bir bola ko’rindi,u bola amallab tokchadan pastga qaradi.Balkim uning bo’yining pastligi, unga pand berayotgandir?O’zi yosh bo’lishiga qaramay nigohida qandaydir ishonchsizlik,g’am namoyon edi.Uning ismi Umidjon.U olti yoshda.”Bu ismni unga kim qo’ygan deysizmi?” ,uning onasi.Ha noto’g’ri o’qimadingiz uning bag’ritosh onasi, bu ismni Umidjon - deb ne-ne umidlar bilan qo’ygan .U hozir olti yoshda.Mana shuncha yillardan buyon, u onasini kutadi.Nega otasini emas? Chunki oyisi unga ism qo’ygan.U shundan umid kutar edi.Bir kun kelib , uning oyijonisi kelib og’lini olib ketadi va unga shirinliklar,o’yinchoqlar olib beradi. U shu kun kelishini kutardi. Xayolida esa “Onajon nega tashlab kettingiz ?,meni nima aybim bor?”,-der edi.Ko’ziga yosh oraladi.Keyin esa “onam baribir keladi”deb o’z-o’ziga tasalli berdi.Qiziq emasmi?olti yoshli bola xuddi kattalardek fikrlar edi.Bu mehribonlik uyida har bir bolaning o’z tarixi,qismati,o’g’riqlari bor.Eshikdan novcha ,qorachadan kelgan bir bola kirib keldi.Uning ismi Olimboy.Jahli burnini uchida turadigan bu bola aslida juda mehribon bola,salga jahli chiqsa ham birovga zarari tegmaydi.Yaqinda to’qqizinchi sinfni bitirdi.Tashqaridan begona odam kelsa, xuddi uni qidirib kelgandek hali ham kimdirini izlaydi. Undan “Sen bu yerga qanday kelib qolgansan”, deb so’rashsa, bola ko’zi to’la yosh bilan, onasi bozorga olib borib sen shu yerda o’tirib turasan deb tashlab ketganini aytadi. “Men bir kun kutdim, onam kelishini”, – deydi. Bolaligidagi bu xotiralar qalbida chandiq bo’lib qolib ketgan. Hali ham bir kun onamni kutgan joyimni eslayman deydi u.Eshitishimcha, "meni hech kim so’ramadimi, hech kim telefon qilmadimi", deb surishtirib yurarkan.Endi Umidjonga qaytsak.Olimboy Umidjonga “Seni Saida opam qidiriyapti,bu yerda nima qilyapsan dedida chiqib ketdi.Umidjon tokchadan mungli tikilgancha qimirlamay turardi.Eshik tag’in ochildi..Hayoli chalg’ib,apil-tapil ko’z yoshini artgan Umidjon bu safar eshikka

nigohini qaratdi. Eshikdan Saida opa va bir qizcha kirib keldi. Ko'z yoshini ko'rgan opa biroz yuragiga g'ashlik sho'ng'igan bo'lsada indamadi va nim tabassum qilib gap boshladi:

—”Iye Umidjon o'tiribsanmi? Seni Oysha qizim bilan qidirdik” dedi qo'g'irchog'ini qattiq quchoqlab olgan Oyshaxonga ishora qilib. Oyshaxon shiringina qiz, sochlari jingalak, ustida oq va qora ko'ylakchasi ham bor edi. Sovuq tushib qoldi derazani ochib bo'ladimi? Xona sovib ketibdi-ku Umidjon? U gapirmadi ham, xuddi sovuqni his qilmayotganday?

—Umidjon senga nima bo'ldi?

U o'zini tutib turolmadi, Saida opaning quchog'iga otildi va yig'lab yubordi. Saida opa “Sen yaxshi bolasan. Hali hammasi yaxshi bo'ladi” dedi-yu boshqa gapirolmay norasidaga sherik bo'ldi. Oradan bir yil o'tdi. Umidjon endi maktab borayapti. Uni Saida o'z vasiyligiga oldi. Uning ko'zlarida sevinch yoshlari balqiydi. Endi u baralla “Mening ham oyim bor, mening ham oilam bor” deydi. Ammo o'sha tinch bermas savollar uni qayerga bormasin taqib qilaverardi. Uning peshonasidagi yetimlik tamg'asi esa ba'zan pand berib turardi. Saida opa uni uyiga olib kelgancha ne-ne ta'na dashnomlar eshtmadi, boyaqish bechora. Turmush o'rtog'ining hali turmushga chiqmagan singillari bunga qattiq qarshi chiqishdi.

—”Ha kelinoyi! O'zingiz yetimhonada ishlaganingiz yetmaganidek, nega yetimchangizni yetaklab keldingiz?-der edilar. Saida opa bu mavzuda bo'ladigan janjallarda ko'p asabiylashar edi. Qaynisingillar Saidani mehribonligini tushunmay unga ko'p ko'ngilga tegadigan gaplar aytishardi. Ammo eri tushungan bularning hammasini yengib o'tishdi. Sanjar aka Umidjonni yaxshi kurar, unga ishdan qaytganda turli xil shirinliklar va o'yinchoqlar olib kelar edi. Uni o'z o'g'liday ardoqlardi. Sanjar aka va Saida opaning farzandlari yo'q edi. Vanihoat bir yildan so'ng Umidjonning ammalari birin-ketin turmushga chiqib ketishdi. “Tillarining chaqqonligi” uchun ko'pgina dakkilar eshitishdi. Birining farzandi bo'lmadi. Biriniki nobud bo'ldi. Ularning har ikkisi ham Saida opa yordamida bola tarbiyalab olishdi. Shuni aytishsa kerakda?” Qilmish-qidirmish deb. O'sha paytlar Umidjon o'n bir yoshda edi. Orada Saida opa egiz farzand dunyoga keltirdi. Yillar o'tdi. Esini tanigan, oq-qorani bemalol ajratib oladigan, Umidjon ukalarini bog'chaga olib borar edi. Yo'lda u ketayotib, ustiga ola chipor chopon kiyib olgan, bo'yi pastroq, ozg'in Ochil buvani ko'rdi. -Assalomu -aleykum Ochil buva.

-Vaaaleykum assalom Umidjon. Ota-onang yaxshi yurishibdimi?

-Ha yaxshilar..

-Ukalarini bog'chaga olib borayapsanmi? Kelaqol men Bobirjonga qo'shib, manavi shirintoylarimni ham oborib qo'yaman. Sen esa mana Durdon qizim bilan maktabga boringlar, kech qolmanglar.” sochi ikkita o'rilgan, ustida bejirim maktab formasi kiyib olgan Durdonaxonga ishora qilib”

Ukalarini shartta Ochil buvaga topshirib, “Ketdik Durdonaxon” dedi, shahdamlashib. Durdona istar istamas - ergashdi. Kunlarni-kunlar quvib

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

o'tardi.Umidjon alpqomat yigitcha,Durdona esa parisifat qiz bo'lib ulg'aydi.Umidjon kitoblarni juda sevardi.Kunora kutubxonaga borib turardi.U yerda esa Durdonani ,qolaversa uning oyisini ko'rardi.Mavjuda opa kutubxonada ishlaydi,Uni Umidjonga ko'ngli tushib qolgandi.U Umidjonni onasi bo'lib chiqishi tushiga ham kirmagandi.Ona ko'ngli sezdi shekilli Umidjonni tug'ilgan kuniga tashrif buyurgan Mavjuda opa uning o'g'li ekanligini payqab qoldi.

—”Bolam -bolaginam ,nahot bir umr ahtarganim ko'z oldimda o'sgan bo'lsa?”- Umidjon o'zini yo'qotib qo'ydi. Durdonaning qo'lidan ichimlik to'la idish tushib ketdi,orzulari xuddi shu chog'da idishdek chil-chil bo'lgandek edi go'yo.Chunki Umidjonga befarq emasdi.Umidjon ham uni yoqtirib qolgandi.Ochil buva hayratdan yoqa ushladi...Saida opa ko'nglida sira g'arazi yo'q ayol edi.Samimiylilik bilan uning onasini qarshi oldi.Ona –bola yillar o'tib topishgan bo'lsada,ularni birga yashashini xoxladi,Umidjon onasi bilan baxtli hayot kechirdi.U oliygohga o'qishga kirdi.Magistraturani ham bitirdi.Umidjon va Durdonaning hayoti qanday kechdi deysizmi?Ular turmush qurishdi.Durdona Mavjuda opaning haqiqiy qizi emas ekan.Durdonani bolalar uyidan, chaqaloqligidan tarbiyalab olganligi masalaga oydinlik kiritdi.Hozir ular yosh va mustahkam oilalardan biri .Barcha dillarga umid bag'ishlagan,mehribon,oliyjanob va saxiy Umidjon hozir mehribonlik uyining direktori.Durdona esa huddi shu uyda tarbiyachi bo'lib ishlaydi.Nahot ularning taqdiri ham “Mehribonlik uyiga bog'liq bo'lsa?”Endi ular norasidalarga mehr bermoqdalar.Shirin hayot sari qadam qo'ymoqdalar..

